

“ESHON” INDIKATORLI NEKROTOPONIMLARNING BA’ZI SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Yusupov San’at Shuxratovich

Nukus davlat pedagogika instituti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasida o‘qituvchisi.

E-mail: sanatyusupov999@gmail.com

ORCID ID: <https://orcid.org/0009-0008-2428-485X>

Annotatsiya. Maqolada Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi “Eshon” indikatorli nekrotoponimlarning ba’zi semantik xususiyatlari o‘rganilgan

Kalit so‘zlar: toponim, nekrotoponim, nekronim, indikator, onomastik konversiya, grammatik tarkib, etimologiya, semantik tarkib.

Toponimik indikator termini ilmiy adabiyotlarda turlicha qo‘llanilib kelinmoqda. Masalan, geografik termin, geografik so‘z, geografik nomenklatura, indikator, apellyativ so‘z, toponimik termin va hokazo. Bu haqida olimlarning fikrlari ham har xil. Masalan, rus tilshunosi YE.M.Murzayev indikator toponimga xos belgi va holatlarini ifodalovchi so‘z ekanligini ta’kidlaydi.¹ Z.Do‘simov va X.Egamovlar esa: «Indikator – toponimlar tarkibida kelib, obyektning xarakteri, xususiyati, sonini ko‘rsatuvchi so‘z. Masalan, toponimik indikatorlar: qishloq, qum, tepa va cho‘llar, gidronimik indikatorlar ko‘llar, daryo, ariq va hokazo. Lotincha indikos «ko‘rsatgich» so‘zidan yasalgan deb ikkiga ajratadi.²

Prof. Z.Do‘simov bir maqolasida indikatorli toponimlar toponim-kompozitlar deb ataladi deb ko‘rsatgan va ularning toponimik, gidronimik, funksional indikatorlar kabi turlarini ajratgan.³

Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududida *bobo, ota, avliyo, qa‘la, mulla, ovul* kabi o‘tmishdagi amal hamda ijtimoiy tabaqa *eshon, xo‘ja, oxun*, joy – obyekt bildiruvchi so‘zlar, ya’ni *nekrotoponimik indikatorlar* hisoblanadi.

Eshon leksemasi ham indikator vazifasida keladi. Mazkur leksema forscha so‘z bo‘lib, lug‘atda shunday izohlangan: **ESHON** [f.– 3-sh. ko‘plikdagi shaxs olmoshi: ular; mulla, shayx] Dindorlar orasida ma’lum obro‘ qozongan ruhoniy, din peshvosi. *Bu eshon birov bilan so‘zlashganda, o‘zini xuddi kimga qaysi jannatdan o‘rin berish to‘g‘risida xudo bilan so‘zlashib kelganday tutardi.* A. QAHNOR, TO‘Y. (O‘TIL, 2006.2-Jild. 66).

Bunday nekrotoponimlar asosan kishi ismiga eshon indikatorini qo‘shish bilan hosil bo‘lgan. Atoqli ot+ eshon > nekrotoponim. Mazkur hududda yashagan, xalq

¹ Мурзаев Э. М. Очерки топонимики. — М.: Мысль, 1974. — С. 21-22.

² Дўсимов З., Эгамов Х. Жой номларининг қисқача изоҳли луғати. — Т.: Ўқитувчи, 1977. 161-б.

³ Дўсимов З. Топонимлар номинациясида нисбийлик тамойиллари // ЎТА. – Тошкент, 1984. 4-сон. –С. 12.

orasida katta obro‘-e‘tiborga ega bo‘lgan, ko‘pincha mazkur qabristonga dafn qilingan ulamo nomiga qo‘yilgan bo‘ladi.

Arzi eshon (Chimboy t.). Orzu –arabcha so‘z bo‘lib, shevada yoki talaffuzda ba‘zi fonetik o‘zgarishlarga uchraydi. Qoraqalpoq tilida Arzi shaklida qo‘llaniladi. Uning tuzilishini

Arabcha atoqli ot + indikator shaklida ko‘rsatish mumkin.

Besim eshon (Chimboy t.). Besim so‘ziga shunday izoh berilgan: Besim – albancha erkak ism.[1] Bu alban tilida “e‘tiqod” yoki “e‘tiqod” degan ma‘noni bildiradi[2]. Bundan tashqari, Turkiyada va Bosniya va Gertsegovinada kamroq qo‘llaniladi.⁴

Albancha atoqli ot + indikator qolipida tuzilgan.

Yusuf eshon (Xo‘jayli t.). Payg‘ambarimiz Yusuf alayhissalom ismiga qo‘yilgan. Yusuf alayhissalom haqida shunday ma‘lumot beriladi:

“Yusuf ibn Ya‘qub ibn Ishaq ibn Ibrohim alayhissalom. Yusuf alayhissalomning onasi Rohil binti Labondir.

Yusuf alayhissalom oq tanli, chiroyli yuzli, jingalak sochli, katta ko‘zli, ingichka burunli, yo‘g‘on oyoqli, tekis qorinli, yuzi xolli edi. Yusuf alayhissalom ajdodi Odam alayhissalomga o‘xshardi. Unga go‘zallikning yarmi berilgan edi”.⁵

Arabcha atoqli ot+indikator qolipida tuzilgan.

Xo‘ja eshon (Taxtako‘pir t.). Xo‘ja arabcha so‘z bo‘lib, Muhammad (s.a.v.) avlodlarini ifodalaydi. U ism ham, indikator vazifasida ham keladi. (O‘TIL.2006.4-Jild. 435).

Fors-tojikcha+indikator +indikator qolipida tuzilgan.

Axan Eshon (Amudaryo t.).

Umumturkiy+indikator qolipida tuzilgan.

Ba‘zi nekrotoponimlar asosga formantlar qo‘shish hamda indikator qo‘shilishi natijasida hosil bo‘lgan.

Saidjon eshon (To‘rtko‘l t.).

Arabcha+fors-tojikcha+indikator

Surali eshan (Kegeyli t.).

Arabcha+umumturkiy+indikator

Qanglibek eshon (Kegeyli t.)

Umumturkiy+ umumturkiy +indikator

Sayliboy eshon (Amudaryo t.)

⁴ https://uz.wikipedia.org/wiki/Besim_Atalay

⁵ Пайғамбарлар тарихи. Масъул муҳаррир Анвар қори Турсунов. – Тошкент: Munit, 2021. –С. 226.

Arabcha+ umumturkiy+indikator

Tilovboy eshon (Amudaryo t.),

O‘zbekcha+ umumturkiy+indikator

Dog‘don eshon (Amudaryo t.),

Ayrim nekrotoponimlar qo‘shma so‘zlardan tarkib topgan bo‘lib, ularga *eshon* indikatorini qo‘shiladi.

Abdireym eshon (Taxtakopir t.). O‘zbekcha Abdirahim shaklida bo‘lib, arab tilidan olingan. Ollohning quli ma’nosini ifodalaydi.

Arabcha+arabcha+indikator qolipida tuzilgan.

Abdinasir eshon (Taxtakopir t.).

Hududdagi obyektlarning katta qismi antroponimlar, ya’ni kishi ismlari va etnonimlar, ya’ni urug‘, qabila, millat nomlari bilan atalganligi bu hudud nekrotoponimlari uchun yana bir xarakterli jihatdir. Nekrotoponimlar orasida umumturkiy, arab, fors-tojik, rus tili va rus tili orqali boshqa g‘arb tillardan o‘zlashgan nomlardan tashqari, ularning bo‘laklaridan biri yoki yasovchisi boshqa-boshqa tillar materiallari bo‘lgan nomlar ham anchagina qismni tashkil qilishi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мурзаев Э. М. Очерки топонимики. — М.: Мысль, 1974. — С. 21-22.
2. Дўсимов З., Эгамов Х. Жой номларининг қисқача изоҳли луғати. — Т.: Ўқитувчи, 1977. 161-б.
3. Дўсимов З. Топонимлар номинациясида нисбийлик тамойиллари // ЎТА. – Тошкент, 1984. 4-сон. –С. 12.
4. https://uz.wikipedia.org/wiki/Besim_Atalay
5. Пайғамбарлар тарихи. Масъул муҳаррир Анвар қори Турсунов. – Тошкент: Munir, 2021. –С. 226.
6. Жанузақов Т. Орталық Қазақстан жер-су аттары. – Алматы: Ғылым, 1989. – Б.175-176.
7. Shuxratovich, Y. S. A. (2024). NEKROTOPONIMLARDA TARIXIY SHAXSLAR TALQINI QORAQALPOG ‘ISTON MISOLIDA. Hamkor konferensiyalar, 1(5), 51-54.
8. Shuxratovich, Y. S. A. (2024). TYPES OF NECROTOPONYMS IN KARAKALPAKSTAN ACCORDING TO THEIR GRAMMATICAL STRUCTURE. American Journal of Philological Sciences, 4(09), 106-114.
9. Shuxratovich, Y. S. A. (2024, March). “BOBO” INDIKATORLI NEKROTOPONIMLARNING BA’ZI SEMANTIK XUSUSIYATLARI. In Konferensiyalar| Conferences (Vol. 1, No. 7, pp. 92-94).
10. Shuxratovich, Y. S. A. (2023). “OTA” INDIKATORLI NEKROTOPONIMLARNING GRAMMATIK XUSUSIYATLARI. Barqaror Taraqqiyot va Rivojlanish Tamoyillari, 1(1), 8-11.